# TA`LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA BOSHLANG`ICH TA`LIM O`QUVCHILARINING O`QUV-BILUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

**Muallif:** Javliyeva Gulnoza Maxmudovna[1]
**Affiliyatsiya:** Xalqaro Nordik unversitetining magistranti[1]
**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.17320170

## ANNOTATSIYA

Boshlang`ich sinf o'quvchilarining ona tili fanini o`rgatishda qiziqarli didaktik o`yinlar orqali o`rgatish , boshlang`ich sinflarda ona tili darslarini raqamli tashkil etishdagi pedagogik mahorat ustuvorligi, o`quvchilarda ona tili faniga oid bilimlarini rivojlantirish masalasi, o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar, o`quvchilarga ona tili fanini o`rgatishda dars jarayonida tushunarli va oson usullar orqali darslarni tashkil etishga amaliy takliflar ko`rsatilgan.

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

**Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, o`quvchi, o'zlashtirish, boshlang`ich sinf, o`qituvchi, didaktik vositalar, intellektual, mustaqil fikrlash, sifat, samardorlik.

## KIRISH

Mamlakatimizda innovatsion taraqqiyot, raqamli texnologiya bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo`lgan yoshlarning ijodiy g`oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo`llab-quvvatlash o`quvchilar tafakkurini rivojlantirish, shu yo`lda xalqaro tajribalarni o`rganish, intellektini boyitish,mantiqiy – qiyosiy fikrlashga o`rgatishimiz lozim. Ilm har qanday zamon va makonda ham najot yo`li, zulmatlarni yorituvchi nur,insonni kamolatga yetaklovchi buyuk ne`mat bo`lgan. Barcha davrlarda bobolarimiz ilmning millat va davlat kelajakdagi o`rnini juda yaxshi anglaganlar. Buning yorqin misoli sifatida Imom Buxoriyning o`n ikki asr oldin "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo`q va bo`lmag`ay",degan fikrlarini keltirish mumkin. Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ham ta`lim, bilim, zakovat tushunchalari o`z qiymatini yo`qotmaydi, aksincha, dolzarbligi yanada oshadi. Ilmni saodat deb bilgan xalq borki, rivojlanishga yuz tutishi muqarrar. Asosiy invistitsiyani ta`lim tizimiga kiritadigan mamlakat, albatta, ulkan yutuqlarga erishadi. O`zbekiston ta`lim tizimida umumiy o`rta ta`limning sifatini oshirish, o`quv jarayoniga kriativ pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang`ich ta`limda, sifatli ta`lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv va raqamli texnologiyalar jarayonida ongli yashashga qodir shaxsni kamol toptirish salmog`i kengaydi. Zamonaviy platformalar orqali pedagoglarning dars o`tish jarayonlari yanada qiziqarli tarzda olib borilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta`limini rivojlantirish masalalari bo`yicha o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida "Najot ta`limda,najot tarbiyada,najot bilimda"degan so`zlari yuqoridagi

fikrimizga yaqqol misol bo`lib, zamirida juda katta ma`no mujassam bo`lgan desak, xato qilmagan bo`lamiz.

**Asosiy qism:** Y.A.Komeniskiy O`rta asrning so`ngi davrlarida bolalar ta`lim olayotgan barcha muassasalarni *"insonparvarlikni tarannum etuvchi ustaxonalar"* kabi bo`lishi lozim deb hisoblagan. Shu sababli o`quvchilarga har bir fanni mukammal tarzda o`rgatish lozim. Ayniqsa ona tili va o`qish fani to`g`ri fikrlash, yozish va nutq madaniyatini shakllantiradi. O`quvchilarga nutqiy faoliyatda akustik tomondan o`zgarishlarni ona tili fanini o`qitish davomida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali tushuntirish mumkin.Masalan, Kahoot, Quizizz, Flippity kabi platformalar orqali dars jarayonini yanada qiziqarliroq olib borish mumkin . Quyida ona tili faniga oid topshiriqlardan namunalar ko`rib chiqamiz.

1. Talaffuzida jarangsiz, ammo yozilishida jarangli bo`lgan so`zlarni toping.




2. So`zlarni to`g`ri joylashtirib gap tuzing .Gapdagi harf birikmalarini toping va belgilang.




3. Harflarni shunday to`g`ri joylashtiringki o`zbek xalq maqollari kelib chiqsin.




1-savolga javob topamiz.

| Talaffuzi | Yozilishi |
|---|---|
| bant | band |
| javop | javob |
| obot | obod |
| balant | baland |
| kitop | kitob |
| ozot | ozod |
| oftop | oftob |
| maqsat | maqsad |
| ziyot | ziyod |
| bant | band |

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

Ona tilimizda bunga o`xshash so`zlar juda ham ko`p shu sababli o`quvchilarga boshlang`ich sinfdan to`g`ri imloviy yozishni o`rgatishimiz lozim.Yuqoridagi aylana shaklni Flippity platformasi orqali yaratishimiz mumkin. Bunda aylana shaklga mavzuga oid so`zlar yoziladi "Generate" tugmasi bosiladi. Hosil bo`lgan so`zlarni barabanni aylantirish orqali o`quvchilar bilan tahlil qilinadi.

2-savolga javob topamiz.

Bolalar ensiklopediyasidan sharsharalar haqida qiziqarli ma`lumotlar o`rgandim.

Ko`chada kulrang mushukni ko`rdim.

Matematika fanidan uchburchak mavzusini o`rgandik.

Yuqoridagi so`zlardan foydalanib gaplar tuziladi. Bu o`quvchilarda so`zlarni ma`no jihatidan moslashtirish ko`nikmasini shakllantiradi. Gaplardagi harf birikmasini belgilash esa o`quvchilarda harf birikmalarini farqlay olishni o`rgatadi.

3-savolga javob topamiz.

Yon qo`shni-jon qo`shni.

Bir bolaga yeti mahalla ota-ona.

Avval o`yla keyin so`yla.

Do`st yomon kuningda bilinadi.

Qo`shning tinch, sen tinch.

Bu mashg`ulot orqali o`quvchilar harflardan foydalanib so`zlar hosil qilishni va bu so`zlardan gaplar tuzishni o`rganishadi natijada o`zbek xalq maqollari kelib chiqadi. O`zbek xalq maqollari o`quvchilarda axloqiy tarbiyani shakllantiradi, milliy

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

qadryatlarni singdiradi, aqliy tafakkurini boyitadi va nutq boyligini oshirishga yordam beradi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda o`quvchilarning bilim salohiyatini takomillashtirishni bog`cha va boshlang`ich sinfdan boshlashimiz lozim va shunday bo`lmoqda . Ona tili fanidagidagi mashqlarni milliy ruhda va zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali olib borilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Ona tili darsini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish – bu darsni qiziqarli, intiraktiv va samarali o`tishning eng yaxshi usullaridan biridir. Bunday yondoshuvlar o`quvchilarning nutq madaniyatini, tafakkurini va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy hayotda axborot texnologiyalaridan to`g`ri foydalanishni o`rganadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


1. A`zam Xoliqov "Pedagogik mahorat"darslik 2025- 249-b
2. Karima Qosimova, Safo Matjonov, Xolida G`ulomova, Sharofat Yo`ldosheva, Sharifjon Sariyev "Ona tili o`qitish metodikasi" darslik 2009-212-b.
3. "Ta`limdagi xalqaro tadqiqotlarning yangi O`zbekiston taraqqiyotidagi o`rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy ishlar to`plami 2024-47-b
4. "Flippity" platformasi.


NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY